

**YANGI O'ZBEKISTONDA RAQOBATBARDOSH KADRLARNI
SHAKLLANTIRISHNING MA'NAVIY-MARIFIY ASOSLARI**

G'ofurova Sug'diyona Abdurashid qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

sugdiyonagafurova816@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yosh avlodni har taraflama yetuk qilish, raqobatbardoshligini oshirish, ma'naviy, madaniy jihatdan tarbiyalash, yoshlarga doir olib borilayotgan davlat siyosatida ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalasi, iqtidorli yosh avlod bilan ishlash strukturalari va ularning qo'llab mexanizmlari, yosh tadbirkorlarga o'zining yangi loyihalarni amalga oshirish va uning erkin qo'llay olishdagi imkoniyatlar haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion fikrlash, mafkuraviy immunitet, vatanga sadoqat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, zamonaviy ta'limning, rivojlanish bosqichlari, ma'naviy taraqqiyot tamoyillari, barkamol avlod tarbiyalash dialektikasi, ma'naviyat, ijtimoiy -falsafiy mezonlar, barkamol avlod tarbiyasi.

Hozirgi davrda zamonaviy dunyoda jahon olimlari, va olimlar barkamol avlodni tarbiyalash omillari orasida iqtisodiy, ijtimoiy, va huquqiy, madaniy, jabhalar bilan birga, ma'naviy hayot mezonlari, bu borada faoliyat yo'nalishlari nihoyatda muhim ekanligiga katta e'tibor qaratib kelmoqdalar. Dunyoning eng yetakchi ilmiy muassasalari, atoqli olimlar va tadqiqotchilarning diqqati esa ushbu sohada bugungi kunning quyidagi dolzarb mavzulariga jumladan, globallashtirish sharoitida yoshlar tarbiyasida ma'naviy olimlar ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasini ilmiy tashkillashtirishda ilg'or davlatlar tajribasini o'rganish, jamiyatda ijtimoiy -ma'naviy muhitni yaxshilash va uni optimallashtirish, bu borada tizimli ish olib borish va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, ma'naviy-

ma'rifiy targ'ibotda kreativ va ta'sirchan usullarni qo'llash, yosh avlod ongini buzg'unchi g'oyaviy tahdidlardan asrash milliy madaniyat va qadriyatlarga mensimay qarash kabilarga murosasiz bo'lish, siyosiy va mafkuraviy jarayonlarni monitoringlash va prognozlashtirish, terrorizm, aqidaparastlik, kabi chegara bilmas jinoyatlarga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, yoshlarda milliy-totuvlik va diniy-bag'rikenlik fazilatlarini mustahkamlash kabi hislatlarga katta etibor berilmoqda.

Zamonaviy kadrlarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtirish muhimdir. Yoshlar o'z xalqining tarixini, madaniyatini va an'analarini bilishi, ularga hurmat bilan yondashishi kerak. Ta'lim tizimida innovatsion metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni joyida hal qila olish imkoniyatini berishimiz mumkin. O'zbekistonning boy merosini o'rganish, saqlash yosh avlodga o'zligini anglashda va milliy identitetni mustahkamlashda yordam beradi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun ushbu masalaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanini nazarda tutib, alohida ta'kidlagani kabi: "Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritdigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur deb hisoblaydilar. T. Toshonovning doktorlik dissertatsiyasi yoshlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasiga asoslanib, ularda ma'naviy va falsafiy dunyoqarashni shakllantirishda islom va boshqa omillarning o'rni tahlil etilgan. S. N. Ikonnikovanning tavsifiga ya'ni fikriga binoan yoshlarning ulg'ayishi, dunyoqarashini shakllanishi ular yashab turgan joyga, tabiiy sharoitlarga bog'liq

deb hisoblaydilar va yana yoshlarni mehnat faoliyati ularning ijtimoiy jihatdan o'sishlariga ijobiy ta'sir etadi.

I.Abdullayev manbashunosliksiz ma'naviyat va ma'rifat rivojlanishi qiyin ekanligini o'rinli tarzda ta'kidlagan. U o'zining "Manbashunoslik ma'naviyat va ma'rifat kaliti" nomli maqolasida bunday fikrlarni bildirgan: "Manbashunosliksiz ma'naviyat va ma'rifat haqida" so'z yuritish qiyin deb ta'kidlab o'tadi u. AQShlik olim S.Xantington o'z asarlarida jamiyatning taraqqiyot tamoyillarida milliylik va diniy konfessional mansublikning o'ziga xos xususiyatlari, milliy-madaniy o'zlikni anglashning ko'tarilish va pasayish davrlari bilan bog'liq keng masalalar majmuini Amerika misolida va uning manfaatlari nuqtai-nazaridan tahlil qilgan. Tarix fanlari doktori, professor A.Mavrulov ta'kidlaganidek: "Boy o'zbek madaniyati bugun o'zining milliyligini saqlab qolgan holda, barkamol shaxsni tarbiyalash, barqaror ijtimoiy madaniy muhitni barpo etish, jamiyatda sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish, odamlarda tafakkur o'zgarishlarini sodir etsagina o'zining asosiy vazifalarini bajargan bo'ladi

Maqolada yoshlardagi shijoat va jo'shqinlikni aql-zakovat va ezgu niyatlarga uyg'unlashtirib, oldimizdagi qo'yilgan bir qancha aniq maqsadlarni ro'yobga chiqarishga yunaltirish masalalari qo'yilgan. Yoshlarga doir olib borilayotgan davlat siyosatida ularning ularning ijtimoiy, siyosiy faolligini oshirish masalasiga ham ustuvor yondashildi. Shuningdek, yoshlar bilan ishlashning, ularga qulay imkoniyatlar yaratishning yangi usuli bu "Yoshlar daftari" hamda, "Yoshlar dasturi" ishlab chiqildi. Ularga kiritilgan, qandaydir muammosi bo'lgan yoshlar bilan alohida ishlanib, aniq amaliy yordam ko'rsatish maqsadlarida davlat budjetidan 300 milliard so'm miqdorida mablag' ajratildi. Tezkor axborot asrida

farzandlarimizni ham ma'naniy, ham jismonan barkamol farzandlar qilib tarbiyalash masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Natijada yoshlarimiz ilgari hechqachon sodir bo'lmagan yutuqlarga erishmoqdalar.

Aniq misollar keltiradigan bo'lsak, 2021-yilda xalqaro olimpiadalarda qatnashgan o'quvchi va talaba yoshlarimiz 4 ta oltin, 18 ta kumush va 29 ta bronza medallarni qo'lga kiritdilar. Prezident maktablarining 96 nafar bitiruvchisining hammasi muddatidan oldin xorijiy yirik oliygohlarning talabalariga aylandilar. Mamlakatimizdagi davlat tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari soni 115 ta, nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni 65ta, xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari soni 35taga yetdi. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi to'rt yil avval 9%ni tashkil etgan bo'lsa, bugun bu ko'rsatgich 28 %ga yetdi ya'ni so'nggi yillarda qabul kvotalari 3 barobar oshirilib, oliy ta'lim olish niyatidagi yoshlarga imkoniyatlar ko'paytirildi. Buning yana bir misolini davlat grantlari sonining 21 mingtadan 47 mingtaga yetkazilgani, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 2ming nafar qizlari uchun ham alohida grantlar ajratilganida ko'rishimiz mumkin.

Yaqinda tashkil etilgan yana bir oliy ta'lim muassasasi "Yangi O'zbekiston" dunyoning yetakchi o'quv markazlari bilan hamkorlikda zamonaviy kadrlarni tayyorlaydi. Ushbu universitet 2022-2023- o'quv yilida 300 nafar yoshlarni o'qishga qabul qilib oladi. BMT ning yoshlar strategiyasida shunday fikr bildiriladi: "Yoshlar siymosida eng qimmatli va o'ta muhim resurslar mujassam topgan bo'lib, unga har qancha investitsiya kiritisa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar ziyoda bo'lib qaytadi". Bu fikrga qo'shilgan holda biz yoshlarimizning aql-zakovati, bilimi va intilishlariga ishonamiz. Yuksak marralarni

ko'zlab olib borilayotgan islohotlarimizda yoshlarimiz eng shijoatli va dadil kuchdir. Ular bor kuch va imkoniyatarini ishga solgan holda Yangi O'zbekiston yo'lida xizmat qilmoqdalar.

Yoshlar ongini buzg'unchi g'oyalardan asrash, ularni to'g'ri yo'lga boshlash, xato va kamchiliklarini tuzatishga yordam berish har bitta insonning ma'naviy burchiga aylanmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda ma'naviy hayotimizga solinayotgan ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurashning samarali usullarini ishlab chiqish, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot va tashviqot ishlarida yangi shakl va texnologiyalarni qo'llash vaqti keldi. Chunki, ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi bo'lmaydi. Har qanday mamlakat taraqqiyotining asosi ilm-fan rivojidir. Agar biz davlatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqmoqchi ekanmiz, yangi innovatsiyalar va jadal islohotlar yo'lidan borishimiz kerak. Davlatimiz va jamiyatimizda tinchlik hukm surishi har bir fuqaroning ezgu tilagiga, tinchlikni asrash esa burchiga aylanishi kerak. Aholimizning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yuksaltirish, yurt taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish hamda "O'z bolangizni, o'z uyingizni o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang" degan shiorni qalbiga singdirish asosiy maqsad-muddaomizga aylanmog'i lozim albatta. Yoshlarda yetuk ma'naviyatni tarbiyalashda Abdulla Avloniyning "Uson millat" asari ham ota-onalar uchun zarur manbadir. Unda axloq, tarbiya, diyonat, shijoat, qanoat, ilm, intizom, vijdon, haqqoniyat, iffat, hayo, idrok, sadoqat, adolat, aqida oqilona fikr yuritilgan.

Avloniy axloq haqida fikr yuritar ekan, uni insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm deb hisoblagan. Uning fikricha, "Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar

ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur". "Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini janobi haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur". A.Avloniyning poklik haqidagi fikrini olaylik. "Poklik zehn va idrokni keng va o'tkir qilur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – 440 b.
2. Bekmurodov M. Tafakkur yangilanishi va butunlikka yo'l // "Ma'rifat" gazetasi. – 2002-yil 26-iyun. – 202 b.
3. Erkayev A. Ma'naviyat: Falsafa fanlari doktori diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 1997.
4. G'ofurov Z., Siddiqov B. Ma'naviy yuksalish – taraqqiyot omili. 1-qism. – Toshkent, 1994. – 134 b.
5. Mamatov M. Qishloq yoshlarining ma'naviyatini shakllantirish, unga milliy va diniy qadriyatlarning ta'siri. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2022. – 136 b.
6. Mamatov M. Yangilanayotgan O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot tamoyillari: barkamol avlodni tarbiyalash omili. – Toshkent: "Makon Savdo Print", 2024. – 222 b.
7. Омонов В.Н. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии // Proceedings of Global Technovation 4th

International Multidisciplinary Scientific Conference. – Paris, France, 2021. – February 27th. – URL: <https://conferencepublication.com>

8. Qodirov B.R. Iste'dodli bolalar va ularni tanlash metodikasi. 3-qism. – Toshkent: "O'zbekiston", 1992. – 326 b.

9. Ro'ziyeva R. Jamiyatning ma'naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish masalalari: Falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2012. – 89 b.

10. Xudoyqulov T. Qishloq yoshlarining ma'naviyatini shakllantirish, unga milliy va diniy qadriyatlarning ta'siri.

11. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "Fan", 2017. – 104 b.